

TIL O'RGANISH JARAYONINI TEZLASHTIRUVCHI OMILLAR

Yangiboyeva Sevinch Sobirjon qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

+998993861683

yankaboyevsevinch@gmail.com

Ilmiy rahbar

Omonova Farangiz Asror qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Hozirgi kunda til o'rganishga talab kundan kunga oshib bormoqda va bu jarayoni osonlashtiruvchi bir qancha omillar mavjud: texnologiya, sun'iy intellekt, ishonch, motivatsiya va, eng muhimi, harakat qilish. Bu yo'nalishlar orqali har bir inson o'z qobiliyatini ko'rsatish mumkin ekanligi hech kimga sir emas. Bu maqolada har bir jarayonni tahlil qilib, bular bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni nazariy jihatdan tahlil qilamiz va til o'rganish insoniyatga qanday foyda keltirishi bo'yicha ma'lumotlarni havola qilaman.*

***Kirish so'zlar:** til o'rganish, chet tili, su'niy intellekt, texnologiya, mobil ilovalar, motivatsiya, ishonch.*

INTRODUCTION.

Texnologiya -- XX asrning eng muhim talabi. Texnologiyalar sirasiga kiradigan va bugungi kunda ommalashgan vosita bu-telefon. Biz bu qurilma orqali tilni puxta va qiziqarli o'rganishimiz mumkin, ya'ni unda mavjud bo'lgan ilovalar (you tube, ielts speaking, duolingo va h.k) orqali turli xil shu tilga tegishli kinolar, qo'shiqlar va uning tarixi, madaniyati kabi ma'lumotlarni osonlik bilan topishimiz mumkin.

→ kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;

→ chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniylar dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;

→ ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va kassetalardan foydalanish;

→ CD playerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Sun'iy intellekt → til o'rganishuvchi faoliyatini kuzatish, xatolarini aniqlash, shaxsga mos topshiriqlar yaratish va interaktiv muloqot muhitini taqdim etish orqali o'rganish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. Alga asoslangan o'qituvchi tizimlar, talaffuz baholash algoritmlari va NLP modellarining samaradorligi ko'plab empirik tadqiqotlar bilan isbotlangan. Shu sababli bugungi kunda AI til o'rganishda eng samarali texnologik omillardan biri hisoblanadi.

Asosiy tadqiqotlar:

→ Schmidt- Noticing Hypothesis (1990)

AI xatolarini ko'rsatib, o'rganuvchini "sezdirishga" yordam bergani uchun o'rganishni tezlashtiradi.

→ Swain-Output hypothesis (1995)

AI bilan muloqot qilgan o'rganuvchilar ko'proq gapiradi → tezroq o'rganadi.

→ Chen & Li

AI vositalari bilan o'qigan talabalar lug'atni 2.5 baravar tez o'zlashtirgan.

→ (2023)

Alga asoslangan dialog tizimlari real suhbat tajribasini taqlid qiladi va o'rganuvchi faolroq qiladi.

Qisqa qilib aytganda, sun'iy intellekt til o'rganish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi.

Motivatsiya va harakat: har bir kishi til o'rganish jarayonida ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi. Harakat qilish faqat o'rganuvchini toliqtirishi mumkin va o'rganishga bo'lgan qiziqishini kamaytiradi. Motivatsiya inson energiyasini yana qayta tiklashga yordam beradi. Motivatsiya-til o'rganishning asosiy dvigateli.

Ichki motivatsiya → til o'rganishdan zavq olish

→ Jarayonning qiziqiligi

→ Yangi bilim olishga intilish

Tashqi motivatsiya → yaxshi ish topish

→ obro', e'tibor

→ malakali kadr bo'lishga yo'l.



Motivatsiyaning samaradorlik ta'siri: Ferda Aper Ay (2025) tomonidan olib borilgan bibliometrik tahlilga ko'ra, motivatsiya va samaradorlik o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik mavjud. Tadqiqotda 1953 yildan 2024 yilgacha bo'lgan davrda chop etilgan 3363 maqola tahlil qilingan bo'lib, motivatsiya xodimlarning ish unumdorligini oshirishda muhim omil ekanligini aniqlagan. Shunday ekan, bu ham o'qish, ham ish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi va eng asosiy omillardan biri.

Ishonch: bu-global hayotdagi maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradigan hisdir. Ba'zi kishilar o'zini qobiliyatli ekanligiga ishonmaydi yoki qo'ldan kelishiga ishonchi yetarli emas, shu payt ularga tashqi tomonidan ta'sir qilgan turtki ularni yana olg'a intilishiga xizmat qiladi. Psixologik ma'noga ko'ra, ishonch kelajakdagi maqsadlariga va rejalariga o'zini yetarli deb baholay olishdir.

Tibbiyotda esa bemorga so'z, harakatlar, tasavvurlar orqali ta'sir qilishdir. Negaki, kasal bemorlarni tuzalib ketasiz deb ishontirish orqali psixologik ta'sir qilib birz bo'lsa-da hayotini uzaytira oladi. O'zini nimadir qila olishiga ishontirish, uning bir qadam oldinda ekanligidan dalolat beradi.

XULOSA

Chet tili o'rganish va bir tilni puxta egallash uchun har bir tavsiya va taklifni so'zsiz amalga oshirish kerak deb o'ylaymiz. Bu omillarsiz tendensiya jarayoni sekinlashishi va salbiy holat yuzaga keladi. Texnologiya, su'niy intellekt, motivatsiya, harakat va ishonch cho'qqiga olib boruvchi yagona yo'l.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gardner, R. C. (1985). *Social Psychology and Second Language Learning*. Edward Arnold. Til o'rganishda motivatsiya — asosiy dvigatel ekanligi, ichki/tashqi motivatsiya tushunchalari shu manbadan olingan.
2. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). *Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior*. Plenum Press. Intrinsic (ichki) va extrinsic (tashqi) motivatsiya nazariyasi shu asarga tayanadi.
3. Dörnyei, Z. (2001). *Motivational Strategies in the Language Classroom*.
4. Cambridge University Press. Til o'rganishdagi motivatsiya jarayon (process-oriented) yondashuvi, action-motivation modeli aynan shu manbadan olingan.
5. Ferda Alper Ay. The relationship between work motivation and productivity: Bibliometric analysis of articles from 1953 to 2024. *Human Systems Management*, Vol. 44, 2025, pp. 187–205. DOI: 10.3233/HSM-240020